

BADIY TARJIMA: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MUAMMOLAR

Tuxtasinov Ilxomjon Madaminovich

O'zbekiston davlat jahon tillari universitetining rektori

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima jarayonining mohiyati, uning asosiy turlari hamda ayniqsa badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlari yoritiladi. Shuningdek, badiiy asarlarni tarjima qilish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik va madaniy muammolar tahlil qilinadi hamda ularni bartaraf etish yo'llari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: tarjima, badiiy tarjima, sinxron tarjima, ketma-ket tarjima, vizual tarjima, ritorik vositalar, terminologiya, madaniy tafovut.

Abstract: This article discusses the essence of the translation process, its main types, and especially the specific features of literary translation. It also analyzes linguistic and cultural problems that arise in the process of translating literary works and considers ways to overcome them.

Keywords: translation, literary translation, simultaneous translation, consecutive translation, visual translation, rhetorical devices, terminology, cultural difference.

Tarjima insoniyat tarixida millatlararo aloqa va madaniy integratsiyaning muhim vositalaridan biri sifatida shakllangan. U nafaqat til birliklarini bir tizimdan boshqasiga ko'chirish, balki madaniyatlararo muloqotni ta'minlovchi ijodiy jarayon hamdir. Tarjima tufayli turli xalqlarning ilmiy, badiiy va madaniy merosi keng ommaga yetib boradi.

Tarjima tushunchasi keng ma'noda matn yoki nutqni bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini anglatadi. Shu bilan birga, u tayyor mahsul – tarjima qilingan asarni ham ifodalaydi. O'zbek adabiyotida tarjima sohasi rivojiga katta hissa qo'shgan ijodkorlar orasida Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Erkin Vohidov kabi adiblarni alohida ta'kidlash mumkin. [3, 12]

Badiiy tarjima – bu adabiy asarlarni bir tildan boshqa tilga o'girish san'ati bo'lib, u tarjimonning nafaqat til bilimini, balki ijodiy yondashuvini ham talab etadi. Roman, hikoya, she'r kabi janrlarni tarjima qilish jarayonida muallif uslubi, obrazlar tizimi va estetik ta'sirni saqlab qolish muhim hisoblanadi. Badiiy tarjima nazariyasi matnning estetik ta'siri, uslubi va madaniy kodlarini qayta yaratishga asoslanadi. Amaliy muammolar esa milliy xos so'zlar, metaforalar va hissiy bo'yoqni adekvat yetkazish, tarjimonning ijodiy yondashuvi hamda til madaniyatlariaro tafovutlarni bartaraf etishdan iboratdir. Asosiy maqsad — so'zma-so'z tarjimadan qochib, badiiy yaxlitlikni saqlash.[4, 34]

Badiiy asarlar tarjimasi amaliyotining rivojlanishi ham XX asrning 30- yillaridan boshlanadi. Bu amaliyot, asosan, chet tilidan o'zbek tiliga bilvosta, uchinchi til yordamida yuzaga keltiriladi.

Mustaqillikka erishganimizdan so'ng mamlakatimiz boshqa mamalakatlar bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar o'rnatib, yosh avlodning ta'limiga alohida e'tibor qaratildi, jahonning nufuzli oliy oquv yurtlari bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilib, davlatlar o'rtasida qo'shma xalqaro universitetlar tuzish orqali chet el tajribasini o'rganish yo'lga qo'yildi. Bu esa, o'z navbatida xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan ehtiyojni oshirdi. Bundan tashqari, O'zbekistonning dunyo mamalakatlari bilan o'rnatilgan o'zaro hamkorlik aloqalari samarasi o'laroq, mamlakatimizga chet el

investorlarining kirib kelishi, mamalakatimiz taraqqoyiti, taraqqiyotning o'zbek modeli, hamda o'zbek madaniyati, san'ati va adabiyotiga bo'lgan qiziqish ortdi. O'zbek xalqi jahon adabiyotining nodir asarlari bilan tanishish barobarida, o'zi jahon adabiyoti xazinasining boyishiga hissasini qo'shmoqda. Albatta bu borada tarjima xalqlar, millatlar, mamlakatlar o'rtasida oltin ko'priklar vazifasini bajarmoqda Jahon adabiyotining yirik namoyandalari – Fyodor stoyevskiy, Gabriel Garsia Markes kabi yozuvchilarning asarlari tarjima orqali turli xalqlarga yetib borgan va bu jarayonda tarjimonlarning hissasi beqiyosdir.[2, 32]

Avvalo, madaniy tafovutlar masalasi bor. Har bir xalqning o'ziga xos urf-odatlar, qadriyatlari va dunyoqarashi mavjud. Shu sababli ularni boshqa tilga moslab, to'g'ri va tushunarli tarzda yetkazish tarjimondan katta mahorat talab qiladi [5, 44].

Keyingi muammo — bu ritorik vositalar va so'z o'yinlari. Metafora, kinoya yoki o'xshatishlarni boshqa tilga o'tkazishda ularning asl ta'sirini saqlab qolish har doim ham oson emas. Ba'zan tarjimon yangi, muqobil ifoda topishga majbur bo'ladi.

Atoqli otlar ham tarjimada bosh qotiradigan jihatlardan biridir. Ayrim nomlar o'zida ma'lum ma'no yoki ramziy yukni olib yuradi. Shunday paytda tarjimon ularni tarjima qilish yoki asl holicha qoldirish haqida qaror qabul qilishi kerak bo'ladi.

Bundan tashqari, terminologik murakkabliklar ham mavjud. Ayniqsa, ilmiy-fantastik yoki maxsus janrlarda uchraydigan terminlarni to'g'ri tarjima qilish uchun chuqur bilim va tajriba zarur. Badiiy tarjima jarayonida bir qator murakkabliklar yuzaga keladi:

1. Madaniy tafovutlar

Har bir xalqning urf-odatlar, qadriyatlari va dunyoqarashi turlicha bo'lgani sababli ularni boshqa tilga mos tarzda yetkazish murakkabdir.

2. Ritorik vositalar va so'z o'yinlari

Metafora, kinoya, o'xshatish kabi uslublarni tarjima qilishda muqobil variant topish har doim ham oson emas.

3. Atoqli otlar muammosi

Ba'zi nomlar ma'no yukiga ega bo'lib, ularni tarjima qilish yoki asl holatda qoldirish masalasi tarjimon oldida tanlov tug'diradi.

4. Terminologik murakkabliklar

Ayniqsa ilmiy-fantastik yoki maxsus janrlarda terminlarni to'g'ri tarjima qilish katta bilim va tajribani talab etadi.

5. Shakl va mazmun uyg'unligi

Asarning mazmuni bilan bir qatorda uning badiiy shaklini saqlash, ayniqsa she'riyatda, tarjimon uchun eng murakkab vazifalardan biridir [1, 45].

Xulosa qilib aytganda, badiiy tarjima – bu oddiy til o'zgartirish emas, balki murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Tarjimon asarning nafaqat mazmunini, balki ruhini ham boshqa tilga ko'chira olishi kerak. Faqatgina lingvistik bilimlar emas, balki madaniy va estetik tafakkur ham muvaffaqiyatli tarjimaning asosi bo'lib xizmat qiladi. Eng murakkab masalalardan biri esa shakl va mazmun uyg'unligini saqlashdir. Asarning nafaqat mazmunini, balki uning badiiy ohangi va uslubini ham yetkazish, ayniqsa she'riyatda, tarjimondan katta ijodiy yondashuvni talab qiladi. Tarjimon asarning nafaqat mazmunini, balki uning ruhini ham his qilib, uni boshqa tilga olib o'tishi kerak. Shu bois muvaffaqiyatli tarjima uchun nafaqat til bilimi, balki keng dunyoqarash, madaniy tushuncha va estetik did ham juda muhimdir.

References:

1. Ochilov, E. (2014). Issues of Literary Translation. Tashkent.
2. Musayev, Q. (2005). Fundamentals of Translation Theory. Tashkent: Fan Publishing.
3. Sirojiddinov, Sh., & Odilova, G. (2011). Fundamentals of Literary Translation (Monograph). Tashkent: Mumtoz So'z.
4. Translation Issues: Collection of Scientific Articles. (2012). Tashkent: Institute of Oriental Studies.
5. Some Issues of Literary Translation. Retrieved from CyberLeninka: <https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy-tarjimaning-bazi-muammolari>
6. Word Choice in Translation and Problems of Literary Translation. Retrieved from Zenodo: <https://zenodo.org/record/5812779>